

**O'ZBEKISTON RANGTASVIRIDA SA'DULLA ABDULLAYEV
IJODINING O'RNI**

Bokiyeva Guzal Ilhomovna¹

¹ *Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti*

San'atshunoslik va muzeysunoslik fakulteti

San'atshunoslik: (tasviriy va amaliy san'at)

ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

guzalbokiyeva@g.mail.com

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 14.01.2025

Revised: 15.01.2025

Accepted: 16.01.2025

KALIT SO'ZLAR:

*Sa'dulla Abdullayev,
o'zbek tasviriy san'ati,
milliylik, zamonaviy
san'at, rassom ijodi,
tasviriy san'at tahlili.*

Ushbu maqolada o'zbek tasviriy san'atining yirik vakillaridan biri, rassom Sa'dulla Abdullayev ijodiy faoliyati, uning asarlarining o'ziga xosligi va san'at olamidagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Uning ijodidagi milliylik, zamonaviylik va madaniy qadriyatlarni aks ettirish va ijodining portret janridagi asarlari tahlil qilinadi.

KIRISH. O'zbekistonning mustaqilligi milliy tasviriy san'atni taraqqiyotiga zamin yaratdi. Bu davrda tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika turlari, uning ko'pgina janrlari rassom va haykaltaroshlarning erkin ijodiy faoliyatlari keng tus oldi. Sobiq Ittifoq davrida ijodkorlar yagona sotsialistik realizm oqimida ijod qilgan bo'lsalar, hozir ular ham ikkilanmasdan o'zlarini qiziqtirayotgan avangardizm, romantizm, impresionizm, abstraksionizm va boshqa qator oqimlarda va mavzularda yuksak badiiy saviyada asarlar yaratmoqdalar.

Jumladan yurtimizda XIX asrning oxiri XX asr boshlariga qadar tasviriy san'at boshqa Sharq davlatlari kabi islom madaniyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. 1917-yil

revolyutsiyadan keyin madaniyatning barcha turlarida asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, diniy qarashlar, jamiyat tuzumi tubdan o'zgarib ketdi. Hudud aholisi yagona sharq-musulmon sivilizatsiyasidan va ko'chmanchilar real dunyosidan ajratilib mutlaq printsiptial boshqa-rus-yevropa madaniyatiga qo'shiladi. Shu sababli ham tasviriy san'atda musulmon madaniyatiga asoslangan barcha an'anaviy jarayonlardan voz kechilib uning o'rniga yangi, yevropa genezisi, tasviriy san'at turlari va janrlari kirib keladi. Bu davrda Yevropada zamonaviy san'at rivoji kuchaygan edi. Turkiston hududida esa rus rassomlarining kirib kelishi yangi badiiy jarayonlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Bunday keskin tarixiy badiiy o'zgarishlar natijasida shiddat bilan umuman "boshqa" yo'lga siljishlar ateistik bosimni yuzaga kelishi, hamma narsaga jumladan musulmon olami bilan bog'liq bo'lgan, alifbodan tortib diniy marosimlargacha mutlaqo ta'qiq qilinishiga sabab bo'ldi⁵⁸. Ammo 60-yillarga kelib yangi izlanishlar etnomadaniy fenomenlarga asoslangan davr bo'ldi. Bu davr issiqlik yillari sifatida san'atda ko'rinadi. Shu yillar tasviriy san'atga V.Burmakin, R.Choriyev, B.Babayev, G.Ulko, E.Melnikov, Yu.Taldikin kabi ijodkorlar kirib keladi. O'zbek rangtasvirida 60-yillarda etnomadaniyat muammolaridan chiqish yo'llari topishga harakatlar boshlanadi. 60-yillardan boshlangan madaniyat va an'analarga qiziqish 70-yillarga kelib kuchayib ketadi. Chunki bu davrga kelib ijodkorlar ruhiy olamida o'zgarishlar yuz berayotgan siyosiy tuzumga nisbatan qarama-qarshiliklar paydo bo'layotgan edi.

70-80-yillar "sustlik" davri bo'lib, bunda aytilgan gaplar bilan qilinayotgan ishlar o'rasida kontrast kuchli bo'lgan hayot yalg'onlarga to'la bo'lib, buni hamma ko'rgan va qabul qilganlar va "o'yin" sifatida yashaganlar, ammo bu holni qabul qila olmaganlar esa bunga og'ir to'lov to'lashga majbur bo'lib, ularni ichki dushman sifatida jimgina yo'q qililib yuborilgan. Haqiqatdan ham bu vaqtga kelib jamiyatda degumanizatsiya va axloqiy jarayonlar payoniga yetayotganday edi⁵⁹.

⁵⁸ Ахмедова Н. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог. Особенности формирования и развития. Ташкент, 2004. С 39.

⁵⁹ Лаковская В.Л. Послевоенная живопись Узбекистана. Ташкент, 1991. С 88.

Albatta bu hol san'atga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi, endilikda rassomlar ijodida portretlar yaratishda ko'p medallar taqib olgan viqorli obrazlarni emas ular o'rniga yolg'izlikda tasvirlangan ishchilar, kolxozchilar, og'ir mehnatdan toliqqan aholi bor hayotiyli bilan huddi 40-50-yillar san'atiga o'xshash xarakterdagi qaytarilib ular ko'proq teatrlashgan va ichki hissiyotdan holi singari syujetlar yaratiladi.

Ammo 40-50-yillar tasviriy san'ati qaytarilgani bilan undagi sotsrealizm g'oyalari garchi davlat tamonidan qattiq talab qilinganligiga qaramay tan olinmaydi. Bu davr rassomlari o'z ijodlarida faqat hayot haqiqati haqida tarannum etishga, san'at hisobidan emas, san'at uchun yashashga, siyosatga yon berish yo'li bilan borishga qarshi harakatlar qilishadi. Shu bilan birgalikda ular bu qarashlari va o'y-fikrlarini ochiq oydin yoritib berish imkoniyat yo'q edi. Nur, Sh.Hakimov, N.Imomov, L.Ibrohimov, A.Turdiyev, F.Axmadaliyev).

1970-80-yillarga kelib, ustalarning yangi avlodi yetishib chiqdiki, ular san'atida go'zallikni badiiylashtirish shaklini qidirish barobarida yillarning ma'naviy merosi bilan bog'liq masalasini ko'tardilar. Faqatgina, 80- yillar oxiriga kelib siyosiy va madaniy vaziyatning o'zgarishi nafis rangtasvirning milliy o'ziga xosligi masalalarini yechishga bo'lgan avvalgi amalda oxiriga yetkazildi. G'arb va Sharq san'atining yuksak an'alariga murojaat etish, "abadiy" badiy qadriyatlariga intilish azaliy takomilga, inson va sunyoning ma'naviy go'zalligi, ko'pqirraligiga erishish yetmishinchi yillarda ijod qilgan Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzayev, Shuhrat Abdurashidov, Aziza Mamatova kabi yuksak malakali musavvirlaar ijodida o'z aksini topdi.



O'zbekiston Badiiy Akademiyasi akademigi, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi haqiqiy a'zosi, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy Rassomlik va dizayn insituti professori, rangtasvirchi rassom Sa'dulla Abdullayev ijodini chuqurroq o'rganar ekanmiz, shu o'rinda o'ta kamtar, kamsuqum, lekin o'z davri badiiy hayotida faol ishtirok etgan rassom Sa'dulla Abdullayev ham yuqoridagi ijodkorlar qatorida o'zbek madaniyati ravnaqiga o'zining katta hissasini qo'shadi. Sa'dulla Abdullayev 1945-yil Toshkent shahrida tarix, san'at va adabiyotni chuqur qadrlaydigan o'zbekona ziyoli oilada tavallud topgan.

Otasi havaskor rassom sifatida ham ijod qilgan. Sa'dulla Abdullayev – zamonaviy o'zbek tasviriy san'atining yirik namoyandalaridan biri. Uning ijodi o'ziga xos uslubi, ranglar uyg'unligi va milliy qadriyatlarni zamonaviy yondashuvlar orqali aks ettirish bilan ajralib turadi. Abdullayevning ijodiy faoliyati o'zbek xalqining boy tarixiy-madaniy merosini tasvirlash, milliy ruhni saqlash va uni zamonaviy san'at orqali dunyoga tanitishga qaratilgan. Abdullayevning asarlarida ko'pincha o'zbek xalqining kundalik hayoti, urf-odatlar, milliy kiyimlaridagi bezaklar va tabiat manzaralari gavdalanadi. U o'z asarlarida faqat tashqi chiroyga e'tibor qaratib qolmay, balki ichki ruhiy olamni, milliy ma'naviyatni aks ettirishga harakat qiladi. Masalan, uning "Navro'z" va "Bahor nafasi" kabi asarlarida tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlikning betakror manzaralari tasvirlangan. Sa'dulla Abdullayev ijodining asosiy xususiyatlaridan biri bu milliylik bilan zamonaviylikning sintezidir. U o'z ishlarida an'anaviy elementlardan foydalanib, ularga yangi ma'no va estetik qiymat beradi. Bu esa uning asarlarini xalqaro san'at maydonida tanitib, o'zbek san'atining xalqaro nufuzi oshishiga xizmat qiladi.

Rassom ijodi nafaqat tasviriy san'at ixlosmandlari, balki san'atshunoslar tomonidan ham yuqori baholanadi. U o'zining ko'rgazmalari orqali o'zbek xalqining boy madaniyatini nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda targ'ib qiladi. Portret san'atining boshqa turlardan farqli ravishda eng avvalo inson qiyofasini, uning ruhiy olamidagi o'zgarishlarni tahlil etib tarixga muhrlab boradi. O'zbek portret san'ati bu xususiyatlardan holi emas. U ham davr ko'zgusi sifatida o'tmish bugun va ertangi kunga nazar tashlashga, yashab turgan zamanga teran nigoh bilan qarashga undaydi. Sa'dulla Abdullayev portret janrda ham samarali ijod qiladi. Rassom portret ustida ishlab turib aniq shaxsni o'rganib, u insonning xarakterini, ichki dunyosini anglash orqali kartina mavzusini muayyan shaklga keltirishga harakat qiladi. Yosh rassomning boshlang'ich ishlarida har doim diqqat e'tiborini yon atrofidagi ko'ngli nozik, dili tug'yonli, o'ychan va orzuchan nigohlarga qaratadi. Bunday obrazlar ijodkor uchun birinchi navbatda ziyoli yoshlar, yaqin insonlar, do'stlarini asosiy mavzu qilib tanlaydi. Shunisi diqqatga sazovorki u ko'plab portretlarda shakl hajmini modelirovka qiladi va figuraga kontrpost burilish berib, go'yo yashirin dramatik hissiyotni ochib beradi. Shunday portretlar sirasiga "Do'stim portreti", "Me'mor portreti", "Husnora portreti" (1977), "Ozoda portreti" (1986), "Kinopradyuser portreti" (1986), "Meksikalik kino aktrisa portreti" (1986), "S.Rahmatullayev portreti" (1975), "Tog'am portreti" (1974), "Solano Bonillo" (1986), "Dadam portreti" (1975) "Jafar portreti" (1986) va boshqa asarlarini kiritib o'tishimiz mumkin. Yuqoridagi portretlarning har birida rassomning ijodiy izlanishlari yaqqol sezilib

turadi. Ijodkor obrazlarni ochib berishda qahramonlarni har xil rakurslarda aks ettirishga urinadi. U ota-onasi, rassom do'stlari va hamkasblari portretini mehr bilan ishlagan. Ayniqsa 1986 yili Osiyo va Afrika mamlakatlari xalqaro Toshkent kinofestivali chog'ida ishlagan rejisyor va aktyorlar portretlari rassomning portretchilik mahoratidan dalolatdir. Portretlar ustida ishlash unga aniq bir shaxsning o'rganish, odamlar xarakterini ochib berish va ularning ichki olamiga kirib borish, kartina tematikasini muayyan shaklga keltirish imkonini beradi. Abdullayev qahramonlari ko'p hollarda tomoshabinlar bilan muloqatga kirishmaydi, ammo bu bilan ular butunlay alohida ajralib yoki ta'sir kuchini yo'qotib qo'ymaydi. Ularning o'ziga hos sifati ichki tug'yonlariga egaligidir. Shu bilan birga har bir portret insonning fe'l-atvorini va holatini hayratlanarli darajada yashirin saqlab, uning ichki biografiyasi haqida "o'ylashga", hayolan u bo'lishi mumkin bo'lgan hayotiy hodisalar haqida fikr yuritishga undaydi, ya'ni emotsionalikka va intellektualikka to'la bu polotnolar tomoshabinni ijodiy mushohada yuritishga chorlaydi. Bu badiiy asarning sifati S.Abdullayev kartinalari, vazminlik, hayajonlik va ekspressivlik hosil qilganiga qaramay-zamonaviy san'at bilan bog'liq xarakterini ham tashkil qiladi. Bir qarashda Sa'dulla Abdullayevning obrazlari vaznsiz, shaffof tanalardek tuyuladi. "Harakatni idrok etish" taomili Abdullayev uchun statika va dinamika orasidagi mutunosiblikni yaratish usuli hisoblanadi, rassom yaratgan jussalarda harakatdagi osoyishtalik seziladi. Abdullayevning obrazlaridagi nazokatni to'rt jussalar, yengil harakatlar, raqsdagidek yurishlar, keng ochilgan yokino'ychan yumilgan ko'zlar ularga yanada nazokat va barkamollik baxshida etadi⁶⁰.

Yuqorida qayd qilinganidek, Abdullayev asarlari portret va inson hayoti va faoliyatining ifoda etuvchi lavhalardan iborat. Ammo dastlabkilari ortret bo'lgan. Rassomning o'zi hushfe'l, ko'ngilchan va nafosat shaydosi bo'lgani tufayli tasvirlanayotgan kishilarni, ularning hayotiy va munosabatlarini ham ana shunday nazar-nigoh bilan qabul etadi. Misol o'rnida "Toliba portreti" yoki "Dilnoza portreti" ko'rsatish mumkin. Ularda, avvalo san'atkorning o'ziga yaqin odamlari tasvirlangan. Ular biror yumush harakat bilan band emas, balki o'z-o'zi bilan bandu ovora, o'z o'ylari, fikr ummoniga g'arq bo'lgan. Darvoqea, rassom tasvirlagan odamlarning hammasi serfikirli, o'zining boy manaviy va ruhiy dunyosiga ega ekanligi bilan belgilangan. Shu bilan ularning ko'rinishidan, o'zini tutushi, kiyim-kechagidan, hatto ular atrofidagi muhit va buyumlardan qandaydir tozalik, soflik,

⁶⁰ Юнусхужаева Азиза. Саъдулла Абдуллаев ижодида замон талқини. Тошкент.2022.С 30.

beg'uborlik, osoishtalik, orastalik, saramjon-sarishtalik ruhi barq urib turgandek tuyuladi. Ayniqsa bu ruh "Toliba portreti" da o'zining tasirli mujassamiga ega bo'lgan. Bu portretida talaba qizning tashqi ko'rinishi, surati va siyrati beg'uborlik va latofat, nazokat va oqilalik ramzi, timsoli darajasidagi badiiy obraz darajasiga ko'tarilgan. Portretni bunday mo'jizakorligini asarni kompazitsion yechimi ayniqsa, beg'ubor tiniq, mayin va muloyim ohanglardan iborat ko'zga rohat bag'ishlaydigan ranglar majmuasi taminlaydi shekilli.

"Xusnora portreti"da ham rassom ismi jismiga monand tasvir yaratgan. Tasvirlangan qizning o'tirishi, o'zini tutishi xis etishi, xatti harakat, uning odobliligi, beozorligi, uyatchanligi singari g'oyat sharqona o'zbekona sifatlarini shu bilan birga faqat shu odamga hos sifatlarini namoyon etadi.

Rassomni portret asarlari anchagina Ular orasida rassom do'stining portreti, qarindoshlardan bazilarini portretlari ham bor. Agar zamonaviy hayotimizdan olingan bazi tasviriy lavhalarining qahramonlari san'atkorning yaqinlari, hatto oila a'zolari yoki yorubirodarlari ekanligini nazarda tutsak ularni ham portret janrga mansub desak yanglishmaymiz. Keyingi yillar, xususan 80-va so'ngi yillar mobaynida Abdullayev yaratgan zamondoshlar obrazini ifoda etuvchi galereya anchagina kengaydi. Yangi portret asarlaridan Toshkentda o'tadigan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi qitalarining xalqaro kinofestivali qatnashchilari va mehmonlarini ifoda etuvchi portretlar turkumi e'tiborga sazovordir. Mashhur kinoartist, rejissiyor, prodyuserlarning portretlari an'anaga aylangan xalqaro kinoanjumanni tarixini yorituvchi badiiy lavha bo'libgina qolmay ayni chog'da o'zbek portret san'ati xazinasiga qo'shilgan noyob ulushdir. Shu bilan birga Sa'dulla Abdullayev ijodida yangi bosqich, yangi dovon desa bo'ladi bu portretlarning ko'rgan kuzatganda.

Xaqiqiy san'atkor singari Abdullayev portret asarini yaratar ekan, u har gal tasvirga olayotgan kishining ko'rinishi, tabiati fe'l atvoriga munosib, uning ruhiy olamiga vobasta tasviriy yo'llar, uslub va vositalarni tanlab ijod qiladi. Toliba portretini Husnora portreti bilan taqqoslab, tasviriy va ifodalab jihatlarini qiyoslab ko'rsak, mulohazamiz to'g'ri ekanligi ayon bo'ladi. Tolibaning tasvirida rassom ko'z ilg'aydigan detallar, ko'ylak va bo'yin ro'molchanning gullari, devordagi rasm ramasining naqshlarigacha e'tibor bergan bo'lsa Husnora portreti lo'nda, yahlit umumlashma darajasidagi uslubda beriladi. Kinofestival qatnashchilarining portretlari anjumanni majlislari va mehmondorchiligidan tasodifan ortib qolgan qisqa tanaffus vaqtida ishlangan, o'ziga hos badiiy reportaj, badiiy intervyu desa joiz.

Rassom Sa'dulla Abdullayev haqida qancha gapirsak ham kamdir. U inson – o'zbek san'atining iftixori. Uning ijodiy merosi milliy qadriyatlarni saqlab qolish va rivojlantirishga, shuningdek, o'zbek san'atining xalqaro maydonda tan olinishi uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bois, uning ijodi san'at ixlosmandlari uchun doimiy ilhom manbai bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмедова Н. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог. Особенности формирования и развития. Ташкент, 2004. С 39.
2. Лаковская В.Л. Послевоенная живопись Узбекистана. Ташкент, 1991. С 88.
3. Юнусхужаева Азиза. Саъдулла Абдуллаев ижодида замон талқини. Тошкент. 2022. С 30.
4. Khayitboboieva K. P. A Study Of The Problems Of Tradition And Innovation In Modern Uzbek Folk Art //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 11. – С. 14-20